SOXTA KASHTAN DARAXTINING EKOLOGIK VA DORIVOR AHAMIYATI

Jurayeva Ra’noxon Ismoil qizi

Qabul qilindi: 27.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 28.10.2025
Tasdiqlandi: 29.10.2025

Inson hayoti bevosita tabiat bilan bog‘liq. Atrof-muhitni asrash, ekologik muvozanatni saqlash va yashil maydonlarni ko‘paytirish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir. Shu nuqtai nazardan, har bir o‘simlikning tabiatdagi roli beqiyosdir. Shunday o‘simliklardan biri — soxta kashtan daraxti (*Aesculus hippocastanum L.*) bo‘lib, u nafaqat shaharlarni bezab turadi, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash va inson salomatligini mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutadi.Soxta kashtan dastlab Bolqon yarim orolida, ayniqsa Gretsiya va Albaniya tog‘li hududlarida o‘sgan. Bugungi kunda esa u Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika hamda O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida uchraydi. Daraxt o‘zining yirik, panjasimon barglari, bahorda ochiladigan oq yoki pushti gullari va jigarrang urug‘lari bilan ajralib turadi. Mazkur ishda soxta kashtan daraxtining ekologik, dorivor va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Soxta kashtan — sapindadoshlar (Sapindaceae) oilasiga mansub ko‘p yillik daraxtdir. U 20–25 metr balandlikka yetadi, poyasi qalin, to‘q kulrang po‘stloqli bo‘ladi. Barglari panjasimon, har bir bargi 5–7 ta yirik bo‘lakdan tashkil topgan. Gullari mayda, oq yoki pushti rangli, piramidasimon shingillar hosil qiladi. Mevasi yashil rangli, silliq yoki kam tikanli qobiq bilan qoplangan, ichida 1–3 ta yirik, jigarrang urug‘ joylashgan.Soxta kashtan aprel–may oylarida gullaydi, mevasi esa kuzda pishadi. U tez o‘suvchi, sovuqqa va qurg‘oqqa nisbatan chidamli o‘simlik hisoblanadi. Shuning uchun u shahar sharoitiga moslashuvchan va ko‘kalamzorlashtirishda keng qo‘llaniladi.

Soxta kashtan ekologik tizimda bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi Havoni tozalash.Barglarining yuzasi katta bo‘lgani sababli daraxt havodagi chang, tutun, avtomobil chiqindilari va zararli gazlarni yutadi. Natijada shahar havosi tozalanadi, kislorod miqdori ortadi.

Mikroiqlimni yaxshilash. Soxta kashtan yoz oylarida atrofni soyali, salqin qiladi. Barglari orqali suv bug‘lanishi natijasida havo namlanadi va harorat pasayadi. Bu ayniqsa issiq iqlimli shaharlarda foydalidir.

Biologik xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash. Daraxt gullari ari, kapalak, chivin va boshqa hasharotlar uchun muhim nektar manbai hisoblanadi. Shuningdek,

urug‘lari qushlar va kemiruvchilar tomonidan tarqatiladi, bu esa tabiiy ekotizimning uzluksizligini ta’minlaydi.

Shahar landshaftidagi o‘rni. Soxta kashtan daraxtlari yo‘l bo‘ylarida, bog‘ va xiyobonlarda ekilib, manzara bezagi vazifasini bajaradi. U nafaqat estetik go‘zallik beradi, balki akustik shovqinni kamaytiradi, changni to‘sadi va havo sifatini yaxshilaydi.

Soxta kashtan inson salomatligida ham muhim o‘rin tutadi. Uning urug‘lari, po‘stlog‘i, gullari va ba’zan barglari dorivor moddalarga boy.

Asosiy faol moddalari:

Aeskin — qon tomir devorlarini mustahkamlovchi modda;

Eskulin — yallig‘lanishga qarshi va tomirni kengaytiruvchi ta’sirga ega;

Flavonoidlar — antioksidant xususiyatli tabiiy birikmalar.

Tibbiyotda qo‘llanishi:

Soxta kashtan ekstraktlari varikoz (qon tomir kengayishi), gemorroy, bo‘g‘im og‘riqlari va tromboz kabi kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

U qon aylanishini yaxshilaydi, tomir devorlarini mustahkamlaydi, yallig‘lanishni kamaytiradi.Xalq tabobatida soxta kashtan po‘stlog‘idan tayyorlangan damlamalar oyoq og‘rig‘ini kamaytiruvchi, teri yallig‘lanishiga qarshi vosita sifatida ishlatilgan.

Biroq soxta kashtan urug‘lari ovqatga yaroqsiz, chunki ular tarkibida zaharli saponinlar mavjud. Shu sababli u faqat dorivor shaklda, maxsus qayta ishlovdan so‘ng qo‘llanilishi mumkin.Soxta kashtan — iqtisodiy jihatdan foydali, ko‘p maqsadli o‘simlik hisoblanadi.Ko‘kalamzorlashtirishda: Daraxt shahar muhitida tez ildiz otadi, soya beradi, chang va shovqinni kamaytiradi. Shu sababli uni ko‘chalar, maktab hovlilari, parklar va xiyobonlarda ekish tavsiya etiladi.

Yog‘ochidan foydalanish: Soxta kashtan yog‘ochi yengil, oson ishlov beriladi, ayrim joylarda xalq hunarmandchiligi mahsulotlari — o‘yinchoqlar, idishlar va bezak buyumlari tayyorlashda ishlatiladi.

Dekorativ qiymati: Bahorda ochiladigan oq-pushti gullar daraxtga o‘ziga xos go‘zallik beradi, natijada u manzara dizaynida muhim o‘rin tutadi.Soxta kashtan daraxti — tabiat va inson hayoti uchun katta ahamiyatga ega o‘simlikdir. U nafaqat ekologik muhitni yaxshilaydi, balki inson salomatligini saqlashda ham muhim vositadir.Daraxt havoni tozalaydi, kislorod ishlab chiqaradi, chang va

zararli gazlarni yutadi, shahar mikroiqlimini me’yorda ushlab turadi. Shu bilan birga, uning tarkibidagi biologik faol moddalar dorivor maqsadlarda qo‘llanilib, ko‘plab kasalliklarni davolashda yordam beradi.

Shuning uchun soxta kashtan daraxtlarini shahar va qishloq hududlarida ko‘proq ekish, ularni parvarishlash va ilmiy jihatdan o‘rganishni davom ettirish ekologik barqarorlik va sog‘lom hayot tarzini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.